

KOMPOTENTLIK, GEOGRAFIK KOMPOTENTLIK VA GRAFIK KOMPOTENTLIK TUSHUNCHALARINING TALQIN ETILISHI VA SIFATLARI

*Jo'rayeva Shaxnoza Abdumalik qizi,
Jo'raxo'jayev Toshpo'latxo'ja Xamidxon o'g'li,
Toshkent viloyati 15-IDUM geografiya fani o'qituvchisi,
Namangan davlat universiteti magistranti,
E-pochta: jurakhujaev_geo@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada kompetentlik, geografik kompetentlik va grafik kompetentlik tushunchalarining talqin etilishi, sifatleri, tahlili, yondashuvlar yoritib o'tilgan. Shuningdek, pedagogik qonuniyatlar aniqlangan, pedagogik – grafik malakalari tahlil qilingan, kompetentlik negizidagi sifatlar va bo'lajak pedagoglarning kasbiy grafik kompetentligini rivojlantirish sxemalari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kompetentlik, geografik kompetentlik, grafik kompetentlik tamoyillar, zamonaviy ta'lim, malakali mutaxassis sifati, Faollik tushunchasi, axborotlashuv.

Интерпретация и качества понятий компетентность, географическая компетентность и графическая компетентность

*Жураева Шахноза Абдумалика кизи,
Журахужаев Тошпулатхужа Хамидхон угли,
Учитель географии 15 ИДУМ Ташкентской области,
аспирант Наманганского государственного университета,
Электронная почта: jurakhujaev_geo@gmail.com*

Аннотация: В данной статье освещены трактовка, качества, анализ и подходы понятий компетентности, географической компетентности и графической компетентности. Определены педагогические закономерности, проанализированы педагогико-графические умения, разработаны компетентностные качества и схемы развития профессиональной графической компетентности будущих педагогов.

Ключевые слова: компетентность, географическая компетентность, принципы графической компетентности, современное образование, качество квалифицированного специалиста, Концепция деятельности, информация.

Interpretation and qualities of the concepts of competence, geographic competence and graphic competence

*Juraeva Shahnoza Abdumalik kizi,
Juraxujaev Toshpulatkho'ja Khamid ugli,
Teacher of geography at the 15th - IDUM of Tashkent region,
Magistr student of Namangan State University,
Email: jurakhujaev_geo@gmail.com*

Abstract: *In this article, the interpretation, qualities, analysis, and approaches of the concepts of competence, geographic competency, and graphic competency are highlighted. Pedagogical laws were determined, pedagogical-graphic skills were analyzed, competence-based qualities and schemes for developing professional graphic competence of future pedagogues were developed.*

Key words: *competence, geographical competence, principles of graphic competence, modern education, quality of qualified specialist, Concept of activity, information.*

Kirish

Jahonda globallashuv va integratsiya jarayonlari chuqurlashayotgan sharoitda o'qituvchilarning axborot-kommunikatsion kompetensiyalarini rivojlantirish orqali kasbiy grafik kompetentligini takomillashtirishga ehtiyoj kuchaymoqda. Shu bois ham YUNESKOning "O'qituvchilar AKT kompetentligini tarkibiy tuzilmasi", "Barcha ta'lim uchun malakali o'qituvchilar" strategik loyihalarida belgilangan me'yorlar va xalqaro standartlarga asoslanib, 3D o'lchamdagi raqamli texnologiyalarni qo'llash, AKT bilan samarali ishlash ko'nikmalari va kasbiy grafik kompetentligini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [13].

Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini kasbiy grafikaviy faoliyatga tayyorlash oily ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan grafik bilimlarni targ'ib etuvchi fanlarni o'qitish asosida amalga oshiriladi. O'z mohiyatiga ko'ra OTMda bo'lajak geografiya o'qituvchilarini grafik faoliyatga tayyorlash texnologik ta'limning muhim yo'nalishlaridan biri, yaxlit jarayon hamda aniq maqsadga qaratilgan pedagogik faoliyat yakuni sifatida namoyon bo'ladi [1].

Adabiyotlar tahlili

Tadqiqot muammosiga oid olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak geografiya ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashni takomillashtirish muammolari bo'yicha mamlakatimiz pedagog olimlaridan Sh.S.Sharipov, N.A.Muslimov, O'.Q.Tolipov, O.A.Qo'ysinov, M. M. Qodirov va boshqalar ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Shuningdek, pedagogik tadqiqotlarda shaxs rivojlanishi bilan bog'liq g'oyalar rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasi sifatida ifodalangan, ular V.A.Slastenin, I.F.Isayev, Ye.N.Shiyanov va boshqalarning tadqiqot ishlarida asoslab berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqola bo'lajak geografiya o'qituvchilarini kompetentligini, grafik kompetentlik faoliyatni va pedagogik mahoratini rivojlantirish tamoyillari, pedagogik shart-sharoitlari va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili yoritilgan.

Tahlil va natijalar

Maqolaga oid adabiyot va elektron manbalarda qayd qilingan ma'lumotlar bilan tanishish natijasining ko'rsatishicha, "kompetentlik" hamda "kompetentsiya" tushunchalarini izohlashda mavhumliklar mavjud. Tadqiqotchilar

tomonidan har ikki tushuncha mohiyatini yoritishda chalkashliklar mavjud hamda tushunchalarning qaysi biri birlamchi ekani xususida yagona to'xtamga kelinmagan.

“Kompetentlik”, “kompetentsiya” tushunchalari dastlab psixologiyada qo'llanilgan bo'lib, 1955 yilda psixolog Deniel Kats funktsional kompetentsiyalar (muayyan ishni bajarish uchun taqozo qilinadigan texnik ekspertizaga taalluqli bo'lgan bilim va malakalar); boshqaruv kompetentsiyalari (resurslarni rejalashtirish, tashkil qilish va ulardan foydalanish uchun zarur bo'lgan bilim va malakalar); kommunikativ kompetentsiya (atrofdagilar bilan o'zaro munosabatni tashkil qilish uchun taqozo qilinadigan bilim va malakalar); kontseptual kompetentsiya (mavhumlik darajasidagi g'oyalarga muvofiq faoliyatni rejalashtirish va mushohada yuritish uchun zarur bo'lgan bilim va malakalar) [12]. Pedagogik leksikonda ushbu tushunchalardan ilk marta 1957 yil da foydalanilgan.

Shuningdek, D.Petrovning yondashuvi esa “kompetentsiya”ning “bilimlar doirasi” ekanini ifodalashni taqozo qiladi. Ya'ni, kompetentsiya – mutaxassis tomonidan yaxshi o'zlashtirilgan bilimlar doirasi bo'lib, u yaxshi o'zlashtirgan ko'nikma, malaka va tajriba negiziga tayanadi hamda o'z navbatida tegishli faoliyatni amalga oshirish yoki qo'yilgan vazifalarni bajarish qobiliyati sifatida namoyon bo'ladi. Muallifning fikri ham asos nuqtai nazardan to'g'ri, biroq, u ham oydinlashtirilishi zarur [2]. Bu o'rinda pedagogik kompetentlikning muhim tarkibiy elementlari – metodik kompetentlik nuqtai nazaridan “kompetentsiya” tushunchasining mohiyatini yoritish mumkin. Har bir o'qituvchi mutaxassis sifatida pedagogik kompetentsiyaga ega bo'lishi zarur. Pedagogik faoliyatni tashkil qilar ekan, o'qituvchi individual, shaxsiy, ijtimoiy, yetakchilik, rahbarlik, metodik kompetentlikni o'zida namoyon qila olishi zarur.

Avvalo, shuni qayd qilib o'tish lozim, mutaxassis faoliyat yuritayotgan soha, yo'nalish yoki u tomonidan bajariladigan faoliyat turi, hal qilinadigan masalalar nuqtai nazarida tegishlicha nomlanib, umumiy yoki xususiy kompetentlikni anglatishga xizmat qiladi [11]. Masalan, pedagogik kompetentlik shu sohada faoliyat olib borayotgan barcha o'qituvchilar ega bo'lishi zarur bo'lgan umumiy kompetentlik bo'lsa, geografiya o'qituvchisida geografik, musiqa o'qituvchisida musiqiy, biologiya o'qituvchisida biologik va hokazo ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Shuni alohida qayd etib o'tish lozim, sohaga oid bosma va elektron adabiyotlar, ilmiy tadqiqotlar bilan tanishish natijasida manbalarda “geografik kompetentlik” atamasi mustaqil tushuncha sifatida bevosita izohlanmagan, balki uning negizida yoritiladigan turdosh kompetentlik turlari, masalan, kartografik kompetentlik, ijtimoiy-iqtisodiy geografik kompetentlik, etnogeografik kompetentsiya kabilarning mohiyati yoritilgan. “Kompetentlik”, “kompetentsiya”

tushunchalarining ta’rifi “geografik kompetentlik” tushunchasi izohlashga imkon beradi [3].


Bizning fikrimizcha, geografik kompetentlik – geografiya fanlari o’qituvchilari (yoki bo’lajak o’qituvchilar)ning ta’lim standartlari talablariga muvofiq geografik bilim, ko’nikma, malaka va tajribalarni puxta egallagan holda ularni amaliyotda samarali qo’llay olish hamda sohaga oid turli murakkablikdagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish qobiliyati. Shu jumladan, V.V.Barabanov geografik kompetentlikni:

- bitiruvchining shaxsiy sifatlari (qadriyatli-mazmunli yo’nalganligi, bilim, ko’nikma, malaka va qobiliyatlari)ning yig’indisi;
- “Geografiya” o’quv predmet orqali taqdim qilingan bilimlar vositasida atrof-muhitda yuzaga kelgan muammolarni hal qilish qobiliyati deya ta’riflaydi.

V.V.Barabanov, shuningdek, o’z tadqiqotida “Geografiya” faniga doir predmetli kompetentsiyalarni quyidagi beshta guruhga ajratadi:

- Geografiya vositalari yordamida aniq vaziyatlarda hal qilinadigan muammolarni aniqlash va ifodalash malakasi.
- Geografiya “tili” (geografik atamalar va tushunchalarni tushunish, geografik xaritalarni “o’qish”, sohaga oid ma’lumotlarni berib boradigan maxsus manbalar bilan tanishib borish) malakasi.
- Ma’lum muammoni hal qilish uchun zarur bo’lgan geografik ma’lumotlarga ega bo’la olish malakasi.

Tadqiqotni olib borish jarayonida geografik kompetentlik negizini tashkil etuvchi sifatlar, ya’ni, kompetentsiyalar quyidagilar ekaniga ishonch hosil qilindi (1-rasm):



1-rasm. Geografik kompetentlik negizida aks etuvchi asosiy sifat (kompetensiya)lar

- *Bilish kompetensiyasi* – geografik terminologiya (amaliy-geografik, tabiiy geografik, ijtimoiy-iqtisodiy geografik, etnogeografik, demografik atamalar) va

geografik bilimlardan xabardorlik; anglash kompetentsiyasi – geografik ob’ektlar: turli geografik mintaqa va hududlarning o’ziga xosligini tushunish.

- *Tahlil kompetentsiyasi* – turli geografik mintaqa va hududlar, ularda kechayotgan tabiiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy jarayonlarni o’zaro taqqoslash.

- *Tavsiflay olish kompetentsiyasi* – geografik mintaqa va hududlarni tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va etnos xususiyatlariga ko’ra yoritish.

- *Geografik belgi-tasvirlarni tushuna olish kompetentsiyasi* – geografik “til”ga egalik (geografik shartli belgilardan xabardorlik);

- *Kartografik kompetensiya* – geografik xaritalar bilan ishlay bilish.

- *Geografik yo’nalish ola bilish kompetentsiyasi* – Yer shari uchun yagona bo’lgan geografik makonning turli mintaqa va hududlari bo’ylab yo’nalish ola bilishni uddalash.

- *Amaliy kompetensiya* – o’quv-axborot va ilmiy-tadqiqot xarakteridagi faoliyatni tashkil eta bilish.

Shu bilan birg, G.A.Galenyuk, S.V.Jilichlarning e’tirofiga ko’ra, grafik fanlar talabalarda grafik va kasbiy kompetentlikni, geografiya yo’nalishidagi fanlarning izchilligi asosida nazariy hamda amaliy bilimlar asoslarini o’zlashtirish uchun zarur bo’lgan bilim va malakalarni shakllantira olishi zarur [5].

Geografiya ta’limning muhim yo’nalishlaridan biri sifatida OTMda bo’lajak o’qituvchilarini geografik grafik faoliyatga tayyorlash tegishli ta’lim yo’nalishi bo’yicha davlat ta’lim standartlariga muvofiq bo’lajak geografiya ta’lim o’qituvchilarining muayyan kasbiy-malakaviy talabga javob berishi zarurligini anglatadi [14].

Yaxlit jarayon sifatida namoyon bo’lar ekan, OTMda bo’lajak o’qituvchilarni kasbiy grafik faoliyatga tayyorlash ko’plab tarkibiy elementlarning birligi hamda o’zaro aloqadorligini taqozo etadi. Bunda kasbiy grafikaviy ta’limning nazariy, huquqiy, nazariy-metodologik, tashkiliy, amaliy-metodik, tashxis-baholovchi asoslari, muhim qonunlari, qonuniyatlari, ustuvor tamoyillari, yetakchi g’oyalari, terminologiyasi, metodikasi, pedagogik texnologiyasi hamda nazorat-baholash tizimi kabi tarkibiy elementlar OTMda bo’lajak geografiya ta’lim o’qituvchilarini kasbiy grafik faoliyatga tayyorlash jarayonining yaxlitligini ta’minlaydi [10].

M.H.Usmonboyeva umumiy dialektik qonunlarni pedagogik qonunlar uchun ham muhim asos ekanligiga e’tiborni qaratadi [3]. Muallifning fikriga ko’ra pedagogik qonunlar quyidagilardir:

- ko’plab, ba’zan esa bir-biriga zid xarakterdagi g’oyalar negizida pedagogik ahamiyatli qarashlarning shakllanishi;

- ta’lim oluvchilar tomonidan o’zlashtirilgan bilim, ko’nikma, malaka, shaxsiy fazilatlarning sifat jihatidan takomillashib borishi, hayotiy va kasbiy tajribaning

ortib borishi;

- yangi, zamonaviy, ilmiy jihatdan takomillashgan qarashlarning davriy va g'oyaviy jihatdan eskirgan g'oyalarni rad etishi;
- pedagogik g'oya va qarashlarning yashovchanligi turli zamona va makonda yashovchi shaxslarning ma'naviy ehtiyojlarini to'la qondira olishi hamda hayotiy intilishlari, qadriyatlariga mos kelishiga bog'liq.

Yaqin xorijiy davlatlarda grafik kompetentlik va uni mutaxassis qiyofasida aks etishi hamda bo'lajak mutaxassislarda mazkur sifatni shakllantirish, izchil rivojlantirish muammosining tadqiq etilishiga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, O.S.Bikova, Ye.P.Vox, G.A.Galenyuk, S.V.Jilich, G.M.Klochkova, T.P.Petlina, T.K.Musalimov, A.V.Petuxova, N.V.Fedotova kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda tadqiqot ob'ekti etib "grafik kompetentlik", "grafik-konstruktorlik kompetentligi" kabi tushunchalarning nazariy talqinini aniqlash, shuningdek, bo'lajak mutaxassislarda mazkur kompetentlikni samarali rivojlantirish jarayonlari qabul qilingan [5].

Unga ko'ra, N.V.Fedotovaning ilmiy ishida "grafik kompetentlik" tushunchasi quyidagicha ta'riflangan: bo'lajak texnik mutaxassisning kasbiy yo'nalishda kamolotga erishib borishini hamda maxsus bilimlarga, grafikaviy malaka, amaliy ko'nikmalarni yorituvchi shaxsiy xususiyat bo'lib, u axborotlashgan jamiyatda shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta'minlovchikuchli raqobatga asoslangan muhitda konstruktorlik-loyihaviy faoliyatni tashkil etishga turtki beruvchi kuchli motivatsiya va keng tafakkurga egalikni, sohaga taalluqli yangi texnologiyalarni o'zlashtirishga tayyorlikni yoritishga xizmat qiladi [9].

Kasbiy grafik kompetentlikning muhim tarkibiy elementlaridan biri – grafikaviy malaka sanaladi. Shu bois ayrim tadqiqotlarda grafikaviy malaka va shaxsda uni rivojlantirish masalasi o'rganiladi.

Sh.N.Muslimov tomonidan J.Diksonning muhandislik faoliyati tuzilmasi – muhandislik tahliliy sxemasi asosida grafik kompetentlikni tashkil etuvchi faoliyatli komponent tuzilmasini aniqladi va ularni talabalar uchun o'quv grafik faoliyatga pedagogik moslashtirdi [3]:


1. Intellektual reja ko'nikmalari: vazifani, muammoni shakllantirish (tushuntirish), uning barcha tarkibiy qismlarini, shu jumladan umumiy algoritmni ko'rish; asosiy hal qilish vositasi bo'lgan yordamchi vazifalarni aniq shakllantirish; yangilikni aniqlash, ma'lum vazifalar sinflari bilan taqqoslash; muhandislik yechimlari bilan argumentlash; grafik ko'nikmalar, shu jumladan taqdim etilgan natija va tavsiyalar bilan bog'liq (jadvallar, grafika, algoritmik shakl va boshqalar)ni qulay shaklda qabul qilish.

2. Mahsulot konstruksiyasi chizmalarini bajarish va chizish. Kerakli matematik o'lchovlarni bajarish. GOST, ma'lumotnoma va texnik adabiyotlardan

foydalanish.

3. Hisoblash texnikasi va boshqa texnik vositalar va tizimlardan foydalanishni talab qiluvchi ko'nikmalar: yordamchi vazifalarni hal qilish uchun ma'lum algoritmlardan foydalanish; har qanday konstruktorlik muammolarini yechish algoritmlari va blok-sxemalarini tuzish, hisoblash texnikasi va kompyuterdan foydalanish.

4. Ijodiy grafik vazifalarni bajarishda axborotni oqilona izlash va ulardan foydalanish bilan bog'liq ko'nikmalar: muammolarni hal qilishda axborot adabiyoti sifatida axborotni taqdim qilishning muammoli - algoritmik shakllaridan foydalanish.



2-rasm. Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy grafik kompetentligi negizida aks etuvchi sifatlar

Oliy ta'lim muassalarida bo'lajak geografiya o'qituvchisining grafik kompetentligini shakllantirish jarayonini tadqiq qilish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar, yuqorida tahlil qilingan grafik kompetentsiyalar mutaxassis tayyorlashda ularni loyihalash, konstruksiyalash, amaliy tayyorgarlik kabi sifat komponentlari bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lib, geotextizimning tarkibiy elementlari hisoblanadi [8].

Bo'lajak geografiya o'qituvchisining grafik kompetentligini shakllantirish jarayonini tadqiq qilishda, yuqorida tahlil qilingan grafik kompetentlik komponentlari kasbiy-pedagogik bilim va ko'nikmalartizimini aks ettiradi [15].

Tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, "kompetentlik" atamasi shaxsiy fazilatlariga, fikrlash va faoliyatning muayyan shakllarini rivojlantirish kabi keng

ko'lamli bilim va ko'nikmalarga urg'u beradigan har qanday kasbiy faoliyat va hayot faoliyati sohasida zarurdir.

A.V.Xutorskoy o'z tadqiqotlarida asosiy kompetentsiyalarning mazmunini keltiradi, ularning ro'yxati quyidagilardan iborat: umumiy madaniy, o'quv-kognitiv, axborot, kommunikativ, ijtimoiy va mehnat, shaxsiy [6]. Umumiy kasbiy (bo'lajak mutaxassislarining kasbiy harakatchanligini aniqlaydigan bilim va ko'nikmalar, qobiliyatlar) va kasbdan tashqari kasbiy kompetentsiyalar (bo'lajak mutaxassislarga raqobatbardoshlikni va mehnat bozoriga muvaffaqiyatli moslashishni ta'minlaydigan universal bilim va ko'nikmalar) deb nomlanadi.

Kompetentlikni rivojlantirish murakkab va oldindan aytib bo'lmaydigan ishlab chiqarish vaziyatlarining xilma-xilligi, kasbiy faoliyatning oqibatlari haqida g'oyalar olish va ular uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish qobiliyatini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Yetuklik kasb- hunar faoliyati va ijtimoiy hayotning beqaror, tez o'zgaruvchan sharoitlarida ishlash uchun zamonaviy texnologik ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarini tayyorlashning yetakchi mezon sifatida e'tirof etiladi [7].

Xulosalar

Shunday qilib, talabalarining grafik ta'lim tizimini qayta tashkil etish talab qilinadi. Bu o'quv materiallarini loyihalash va ishlab chiqishning mantiqiy asosiga asoslanishi kerak, bu esa ta'lim materiallari bloklarini boshqa tartibda tashkil etishni talab qiladi. O'quv materiallarini o'quv dasturlari va grafikalarini tashkil etishda o'quvchilarning qurilish ishlariga yo'naltirilganligi ta'lim muassasalari uchun geografik dasturning asosiy g'oyalariga mos kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Мирзиёев Ш. Билимли авлод – буюк келажакнинг, тадбиркор халқ фаровон ҳаётнинг, дўстона ҳамкорлик эса тараққиётнинг кафолатидир Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 26 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза. 2018 йил 7 декабрь. – Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2018. – 64 б.
2. Абсалямова И.Р. Формирование основ профессиональной компетентности будущего дизайнера в условиях технического колледжа: дис.канд.пед.наук. – М.: 2007. – 166 с.
3. Муслимов Н.А., Абдуллаева Қ.М., Мирсолиева М. «Педагогик маҳорат» фанидан ўқув-методик мажмуа. Ўқув-услуб.қўлл. –Т.: «Фан технологиялари», 2011. – 322 б.
4. Karimjonovich X. B. Soviet Propaganda in Uzbekistan is a History of Agitation //Electronic Research Journal of Social Sciences and Humanities. – 2019. – Т. 1. – С. 138-140.
5. Боймирзаев, Х. (2023). ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ МУҲИТИДА ТАРИХ ЎҚИТИШ МЕТОДИКАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ВА УНИНГ

АМАЛИЙ МОҲИЯТИ. *UNIVERSAL JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES*, 1(4), 15-20.

6. Xurshidjon, B. (2023). TA'LIMDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH TA'LIM SIFATINI OSHIRISHGA XIZMAT QILADI. *UNIVERSAL JOURNAL OF ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH*, 1(4), 24-31.

7. Xurshidjon B. O 'QITUVCHILARINING KASBIY O 'SISHIGA YO 'NALTIRILGAN PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA VA KREATIVLIKNING ENG MUHIM JIHATLARI // *UNIVERSAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE*. – 2023. – T. 1. – №. 1. – C. 131-138.

8. Khurshidjon B. INNOVATIONS IN THE EDUCATIONAL ENVIRONMENT, HISTORY TEACHING, IMPROVED PEDAGOGICAL PROBLEMS // *Engineering problems and innovations*. – 2023.

9. Khurshidjon, Boymirzaev. "INNOVATIONS IN THE EDUCATIONAL ENVIRONMENT, HISTORY TEACHING, IMPROVED PEDAGOGICAL PROBLEMS." *Engineering problems and innovations* (2023).

10. Boymirzayev, Xurshidjon Karimjanovich. "O 'ZBEKISTONDA MADANIY MEROS OBYEKTLARINI SAQLASH, TA'MIRLASH VA QAYTA TIKLASH ISHLARI TARIXIDAN." *INTERNATIONAL CONFERENCES*. Vol. 1. No. 9. 2022.

11. Mirzakhmedov I. K. Use And Protection Of Natural Resources Of Kokand Oasis // *Nature and Science*. – 2020. – T. 12. – №. 18. – C. 49.

12. Mirzakhmedovich B. K. Geocological Problems and their Prevention in Kokand Oasis Landscapes // *Electronic Research Journal of Social Sciences and Humanities*. – 2020. – T. 1. – C. 134-137.

13. Mirzakhmedovich B. K. Geocological Problems and their Prevention in Kokand Oasis Landscapes // *Electronic Research Journal of Social Sciences and Humanities*. – 2020. – T. 1. – C. 134-137.

14. Boymirzaev K. M., Mirzakhmedov I. K. THE ECOLOGICAL STATE OF THE SOILS OF THE NORTHERN FERGHANA AND ITS ANALYSIS // *Теоретические и прикладные проблемы ландшафтной географии. VII Милюковские чтения*. – 2023. – C. 258-260.

15. Boymirzaev K. M., Tojiboeva M. A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar vositasida geografik kompetentlik sifatlarini rivojlantirish // *NamDU*. – 2021. – T. 1. – №. 2. – C. 58-62.